

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

X.XAYNE SHE’RIYATIDA ANTITEZA

Xaydarova Odinaxon Odilovna o‘qituvchi

Ilmiy rahbar-filologiya fanlari nomzodi,

Prof. M.Qahhorova

Anotatsiya: Ushbu maqolada buyuk nemis shoiri Xaynrix Xayne poetikasida antitezaning tutgan o‘rni va badiiy ahamiyati yoritilgan. Muallif Xayne she‘rlaridan keltirilgan misollar asosida leksik va grammatik antitezalarning shakllanishi, ularning poetik g‘oyani kuchaytirishdagi vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, kuchli va kuchsiz pozitsiyadagi antitezalarning qo‘llanish xususiyatlari hamda ularning obrazlilikni oshirishdagi ta‘siri ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqolada antitezaning poetik matndagi estetik imkoniyatlari ochib berilgan bo‘lib, Xayne ijodining o‘ziga xos uslubiy qirralaridan biri sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Xaynrix Xayne, poetika, antiteza, antonim, badiiy uslub.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и художественное значение антитезы в поэтике великого немецкого поэта Генриха Гейне. На основе примеров из его стихотворений анализируется формирование лексических и грамматических антитез, а также их функции в усилении поэтической идеи. Особое внимание уделено использованию антитезы в сильной и слабой позициях и их влиянию на образность текста. В статье раскрываются эстетические возможности антитезы в поэтическом произведении и подчеркиваются уникальные стилистические особенности творчества Гейне.

Ключевые слова: Генрих Гейне, поэтика, антитеза, антоним, художественный стиль.

Annotation: This article examines the role and artistic significance of antithesis in the poetics of the great German poet Heinrich Heine. Based on selected examples from his poems, the study analyzes the formation of lexical and grammatical antitheses and their functions in enhancing the poetic idea. Special attention is paid to the use of antithesis in strong and weak positions and its impact on the imagery of the text. The article reveals the aesthetic potential of antithesis in poetic discourse and highlights Heine’s unique stylistic features.

Keywords: Heinrich Heine, poetics, antithesis, antonym, literary style.

Ma‘lumki, she‘riyat adabiyot atalmish billur chashmaning eng qaynoq nuqtasi hisoblanib, unda doimo jozibadorlik va hayolot cho‘qqilari yashaydi. Adabiyotning bu turi kishiga tez ta‘sir qiladi va estetik ozuqa bo‘lib xizmat qiladi. Shubhasiz, buning uchun, avvalo, badiiy asar tili puxta va uslubiy jihatdan mukammal ishlangan bo‘lishi kerak. Buyuk nemis shoiri Xaynrix Xayne ham bu hayolot san‘atini aql bovar qilmaydigan darajada yuksaklarga olib chiqdi. Inson taqdiri uning misralarida shunchalik aniq va nozik tarzda gavdalanganki, lirik uslubda ulkan prozaik(nasriy) maqsad amalga oshirilganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shubhasiz, bu serqirra ijodkorning har bir lirik izlanishi o‘ziga xos va takrorlanmasdir. Ayniqsa, antiteza yaratish mahorati bo‘yicha Xaynechalik iste‘dod egasi kam topiladi. Shuning uchun ham u “antiteza ustasi” deb tan olingan. Antiteza (grekcha – qarama qarshi fikr) nutqning ikki grammatik yoki leksik birligi ma‘nosining bir biriga zidlanish tarzida namoyon

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

bo‘lishida ko‘rinadi. U poetik g‘oyani yanada ta‘sirchan va obrazli ifodalanishiga xizmat qiladi. Chunki nutqda qo‘llanilgan ma‘noviy ziddlik fikrni yanada tiniqlashtiradi.

Quyida X.Xayne she‘rlaridan keltirilgan parchalar orqali bu jarayonni tahlil qilishga harakat qilamiz.

Mir träumte einst von wildem Liebesglühn

Von hübschen Locken Myrten und Resede

Von süßen Lippen und bitterer Rede

Von düstern Lieder düstern Melodien

Mening tushlarimga kirgandi bir dam, ehtirosli, yoniq tuyg‘ular,

Jamolida aks etmish asli, oromguldek chambar kokillar

Bol misoli shirin labidan, sachrar lekin achchiq sadolar

Huddi bastalangan mayus kuylarga, yurak o‘rtar g‘amgin qo‘shiqlar

Bu she‘riy parchaning uchinchi misrasida qo‘llanilgan süß hamda bitter ya‘ni shirin va achchiq antonimlari gapda bir xil sintaktik vazifa bajargan, aniqlovchi bo‘lib kelgan. Xuddi o‘zbek tilidagi kabi, nemis tilida ham antonimlar antiteza uchun ishonchli material hisoblanib, aksariyat hollarda kuchli pozitsiyadagi antitezani yuzaga chiqaradi.

- Von süßen Lippen und bitterer Rede

Misrasidagi antiteza nafaqat pozitsiya jihatdan yuksak, shuningdek grammatik shakl jihatidan ham monand lirik uslubni namoyon qila olgan. Chunki antitezaning strukturaviy dizayni shunchalik muhimki, agar ushbu usul, ya‘ni antiteza ifodada yaqqol ko‘zga tashlanib turmasa effect yo‘qolishi mumkin. Ikkinchi misolimizda ham huddi shu holat mamvjud.

Die Goldglockenwellen umspielen uns beid

An mein Herze pocht das Herze der Maid

Sie pochen wohl beide vor Lust und vor Weh

Und schwebten hinauf in die Himmelshoh

Ikkimizni mavj urib silar, to‘lqinsimon kokili tillo,

Qizaloqning yurak urishi, menikiga ko‘chgandek go‘yo.

Ikki yurak urar basma-bas, zavqdan darddan hislar mujassam,

Yuksaklarga uchgandek bo‘lar orzulari qanot qoqqan dam.

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

Bu parchada ham uchinchi misrada:

Vor Lust und vor Weh.

Tarzida qo‘llanilgan antiteza parallel sintaktik qolipda shakllangan. Chunki antiteza bir xil yoki o‘xshash shaklda turganda osonroq ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ham yuqorida qo‘llanilgan antonimlar to‘ldiruvchi vazifasini bajarish bilan birga, go‘zal strukturaviy modeldagi antitezani namoyon eta olgan.

Navbatdagi she‘riy parchada ham kuchli polisitsiyadagi antiteza ifodasi ko‘zga tashlanadi.

Im Traum sah ich ein Männchen klein und putzig,

Das ging auf Stelzen, Schritte ellenweit.

Trug weiße Wäsche und ein feines Kleid

Inwendig aber es grob und schmutzig.

Bir kun mening tushimga kirdi, bir odamcha orasta, jajji.

U yurardi yog‘och oyoqda, qadamlari bir gaz misoli

Oppoqqina usti-boshida nazokatlik ayni mujassam,

Qalbida-chi iflos va razil pinhoniylilik edi jamuljam.

Bu she‘riy parchaning birinchi misrasida qo‘llanilgan putzig, ya‘ni orasta so‘zi to‘rtinchi misrasidagi schmutzig- iflos so‘zi bilan ma‘naviy ziddlikni hosil qilyapti. Shuningdek, yana bir diqqatga sazovor tomoni shuki, 4-misradagi fikr 1, 2, 3, misralaridagi fikrga qarshilantirilgan..

4. Es ist eine alte Geschichte,

Doch bleibt sie immer neu

Und wenn sie nur passiert

Dem bricht das Herz entzwei

Qadim asli uning tarixi,

Lek har qachon yangi tug‘yoni.

U qalblarni zabt etgan chog‘i,

Bo‘lar yuraklarni ikkiga ohi.

Birinchi misrada aniqlovchi bo‘lib kelgan “alt” ya‘ni qadimiy so‘zi ikkinchi misradagi “neu”-yangi so‘ziga antonim va demak, antiteza hisoblanadi.

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

Ma'lumki, tilimizda barqaror antonimlar hosil qilgan leksik antitezalardan tashqari, inkor vositalari orqali hosil bo'lgan grammatik antitezalar ham mavjud. Masalan: “ma”- bo'lishsizlik shakli orqali hosil qilingan inkor fe'llar: keldi kelmadi, oldi -olmadi singari.

Bunday so'zlar ham o'ziga xos ko'rinishlardan biri bo'lib, quyidagi misolda shunday holatga duch kelamiz.

Wie bebt und pocht vor Weh und Lust

Mein Herz und brennt heiß

Nicht bebt und nicht pocht der Schönen Brust

Die ist so kalt wie Eis.

O, qanday oshiqalar, entikar hasrat va sevinch hislari,

Bu yurak o'rtanar, qiynalar, olovda aks etar gardani.

Oh, uning oshiqmas, entikmas nafis, lek tug'yonsiz siynasi.

Sovug'i shu qadar kuchliki, go'yoki muz bo'lak parchasi.

Avvalo, bu she'riy parchadagi barcha antitezaviy so'zlarni ajratamiz.

1. Vor Weh und Lust-hasrat va sevinch.

2. heiß, kalt-issiq, sovuq.

3. bebt-nicht bebt, pocht-nicht pocht. Entikadi-entikmaydi, oshiqadi-oshiqmaydi.

Demak, 1 va 2 holatdagi antitezalar bizga tanish bo'lgan antonimik munosabat orqali yuzaga kelgan. 3-holatda esa aynan inkorni ifodalovchi vositalar orqali antitezaviy juftlik hosil qilinyapti. Faqat bunda o'zbek tilidagi «ma» bo'lishsizlik qo'shimchasining o'rnida, nemis tilidagi “nicht” inkor vositasi qo'llanilyapti. Shuningdek, to'rtala misrani bir butun deb olsak, 1va 2- misralardagi ifodalangan fikr bilan 3-4 misradagi fikr ham o'zaro munosabatiga ko'ra antitezani hosil qilyapti.

Ma'lumki, poetik nutqda doimo nafosat va joziba yashirin bo'ladi. Buni his qilib anglab olish esa ko'pincha o'quvchining o'ziga havola etiladi. Quyidagi she'riy parchalarda yuzaga chiqqan kuchsiz pozisiyadagi antitezalar ham shunday holatga misol bo'la olishi mumkin.

Das war mein Liebchen wundersam,

Ein fremder Mann war Bräutigam

Dicht hintern Ehrenstuhl der Braut,

Da blieb ich stehn, gab keinen Laut

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

E voh, bunda hozir mening mahbubam

Ammo o‘zga inson kuyov bo‘lmish ham.

Kelinchak taxtining ortida mulzam,

Dong qotib qoldim men, unsiz chekib g’am.

Bu sher’iy parchada berilgan antiteza kontekstual antonim orqali yuzaga chiqmoqda. Aniqrog‘i ikkinchi misrada tasvirlangan o‘zga inson siyomosidagi kuyov holati, to‘rtinchi misradagi «men» ya’ni qahramon shaxsiga nisbatan yashirin tarzda qarama-qarshidir.

Navbatdagi misolda ham kuchsiz pozisiyadagi antiteza mavjud.

Um seche des Morgens ward er gehenkt

Um sieben ward er ins Grab gesenkt.

Sie aber schon und achte,

Trank roten Wein und lachte.

Sahar soat oltida u sirtmoqqa tortildi.

Etti bo‘lib-bo‘lmasdan, qabriga ham ko‘mildi.

Sakkizga bong urganda, ayol g’amin unutdi.

Aylab shodon qahqaha, gulgun vino simirdi.

Bu parchada kuchsiz pozisiyadagi antiteza juda go‘zal tarzda yuzaga chiqqan. 1-2 misralarda oshiqning holati ifodalanib, 3, 4-misralarda esa mashuqaning holati unga qarshilantirilgan. Yana bir o‘ziga xos tomoni shundaki, misralararo tadrijiy ketma-ketlik mavjud, ya’ni birinchi misrani birinchi pillapoya deb olsak, to‘rtinchi misra asosiy “cho‘qqi” ma’noni o‘ziga yuklagan. Shuning uchun ham bu misra antitezani amalga oshiruvchi asosiy kulminatsion nuqta hisoblanadi. Agar u olib tashlansa, antitezaviy mazmun ham yo‘qoladi.

Bu kabi holatlardan xulosa qilib aytish mumkinki, she’riyat bir mo‘jizaviy sir-sinoatga o‘xshaydi. U har bir oshno qalbni har qanday sohada chinakam kashfiyotchiga aylantira oladi. Xayne poetikasi ham shunday, u bizni avval nafis kapalak raqsi misoli rom etadi, so‘ng his-tuyg‘ularimizni buloqdek toshiradi, hayolot olamiga olib kirib sayr qildirar ekan, undagi fikrlar qamrovi bizni beixtiyor lol qoldiradi. Bu esa X.Xaynening yaratuvchanlik, poetik imkoniyatlarni qo‘llashdagi mahoratidan dalolat beradi. Yuqorida, biz X.Xayne ijod ko‘lamining atiga bir tomchisiga murojat qildim, holos. Aslida, ijodkorning bunday yorqin qirralari to‘lib-toshib yotibdi. Shuning uchun X. Xayne she’rlari har qachon takrorlanmas va o‘lmasdir.

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Heine, Heinrich. Buch der Lieder. Hamburg: Hoffmann und Campe, 1827.
2. Heine, Heinrich. Sämtliche Werke in zwölf Bänden. Berlin: Aufbau-Verlag, 1970.
3. Behler, Ernst. Heinrich Heine and the World Literary Tradition. Yale University Press, 1997.
4. Lotman, Y. M. (1972). Analiz poeticheskogo teksta. Leningrad: Prosveshchenie.
5. Qur'onov, D. (2013). Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. Toshkent: Akademnashr.